Innovatsion rivojlanish agentligi
direktorining 2025-yil 20-noyabrdagi
209-son buyrug‘iga
ilova

“Taraqqiyot uchun tadqiqot” amaliy tadqiqotlar tanlovi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari, davlat dasturlari va konsepsiyalarda bayon etilgan vazifa va topshiriqlarda belgilangan vazifalarni bajarilishida ilmiy yechimlarni ishlab chiqish uchun **Ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturlari doirasida bajariladigan amaliy tadqiqotlar** tanlovi e’lon qilinmoqda.

Tanlovga kelib tushgan loyihalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 9-martdagi 133-son qarorda belgilangan talablarga muvofiq quyidagi fan yo‘nalishlari bo‘yicha e’lon qilinadi:

1. **Arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik fanlari.**
2. **Filologiya va ijtimoiy fanlari.**
3. **Tibbiyot fanlari.**
4. **Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish.**
5. **Texnika fanlari.**
6. **Pedagogika va psixologiya fanlari.**
7. **Kimyo fanlari, kimyoviy texnologiya va nanotexnologiyalar.**
8. **Qishloq xo‘jaligi fanlari.**

Loyiha taqdim qilinganda loyiha rahbari o‘z loyihasi tadqiqot yo‘nalishidan kelib chiqib Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik kengash yo‘nalishini tanlashi va shu yo‘nalish bo‘yicha taqdim qilishi lozim.

Tanlovga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar davlat ilmiy dasturlarining yagona intellektual elektron platformasi (**loyiha.ilmiy.uz**) orqali **2025-yil 20-noyabrdan 2025-yil 20-dekabr soat 23:55 ga qadar faqat elektron shaklda qabul qilinadi.**

Tanlov shartlari.

1. Tanlovda ilmiy-tadqiqotlar o‘tkazish uchun imkoniyati va salohiyati **mavjud ilmiy faoliyat subyektlari ishtirok etishi mumkin**.

2. Loyiha rahbari tomonidan tanlovga faqat bitta loyiha taqdim etilishi mumkin.

3. Amaliy tadqiqot loyihalari bo‘yicha ijrochi tashkilot Ilmiy (ilmiy-texnik) kengashi majlisining bayonidan ko‘chirmada va bajarilishi rejalashtirilgan ilmiy loyiha yakunida qo‘lga kiritiladigan muhim ilmiy natija *(yakuniy mahsulot, yangi ishlanma, texnologiya)* qayd etilishi (asoslab berilishi) lozim.

4. Tanlovga bajarish muddati **3 yilgacha** bo‘lgan loyihalar qabul qilinadi.

5. Loyihani amalga oshirish bo‘yicha ilmiy jamoaning o‘rtacha yoshi, qoida tariqasida **45 yoshdan oshmasligi kerak.** *(Ilmiy jamoaning o‘rtacha yoshi barcha ijrochilarning yoshini o‘rtacha arifmetik qiymati sifatida hisoblanadi)*.

6. E’lon qilingan mavzularga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar tegishli vazirlik va idoralarning qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.

7. Ilmiy loyiha ma’lumotlari Davlat ilmiy dasturlarining yagona intellektual elektron platformasi **(loyiha.ilmiy.uz)** orqali davlat tilida (lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvida) kiritiladi va ijrochi tashkilotning mas’ul rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

8. Tanlovga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar yakunida axborot tizimini ishlab chiqish, kompleks foydalanishga asoslangan dasturiy mahsulotlar, veb platformalar, mobil ilovalar yaratishga qaratilgan bo‘lsa quyidagilar talab qilinadi:

a) yaratiladigan dasturiy mahsulot uchun Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligidan o‘rnatilgan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish va EHM uchun yaratilgan dastur guvohnomasini olish vazifasi loyiha talabnomasida aks etishi;

b) dasturiy mahsulotning loyiha yakunlangandan so‘ng, uzluksiz ishlashi va zarur hollarda ma’lumotlarni yangilab borish;

c) loyiha talabnomasida kamida uch yillik “hosting” va “domen” (mobil ilova bo‘lsa, mobil ilovalar do‘koniga joylashtirish) xarajatlarini “loyihaning boshqa shu kabi xarajatlar” bandiga kiritish.

Eslatma: Tanlovga taqdim etilgan **loyihalarning har bir bosqichda ko‘rib chiqish natijalari** to‘g‘risidagi ma’lumotlar loyiha rahbarlarining Davlat ilmiy dasturlarining yagona intellektual elektron platformasidagi **(loyiha.ilmiy.uz)** shaxsiy kabinetlarida taqdim etib boriladi.

Tanlovga taqdim etiladigan loyiha talabnomalari faqat ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi (ScienceID) identifikatsiyasiga ega foydalanuvchilar tomonidan davlat ilmiy dasturlarining yagona intellektual elektron platformasi (loyiha.ilmiy.uz) orqali qabul qilinadi. “ScienceID” dan ro‘yxatdan o‘tish id.ilmiy.uz tizimi orqali amalga oshiriladi. Loyihaning ijrochilari yoki loyiha rahbari bo‘lmagan shaxslar tomonidan taqdim etilgan, ijrochi tashkilot rahbarining mas’ul o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanmagan loyiha talabnomalari tanlovga qabul qilinmaydi.

Ilmiy loyihalarni shakllantirish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha Innovatsion rivojlanish agentligi mas’ul xodimlari: +99871 203-32-23 (211, 219, 413, 425, 246).

“Taraqqiyot uchun tadqiqot” tanlovi mavzulari

RO‘YXATI

1. “Arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha:

1.1. Urbanizatsiya sharoitida uy-joylar loyiha yechimlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi va iste’mol sifatini kompleks baholash metodologiyasini ishlab chiqish.

2. “Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi bo‘yicha:

2.1. Tematik evfemizmlarning ikki tilli elektron lug‘atini yaratish.

2.2. O‘zbek tilida chop etilgan sohaviy, izohli va imlo lug‘atlarini o‘zida jamlash va foydalanish uchun mo‘ljallangan elektron platformani yaratish.

3. “Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha:

3.1. Bolalarda ichak mikrobiotasining shakllanishida ko‘krak suti bilan oziqlantirish davomiyligining ahamiyati va o‘rnini aniqlash hamda o‘tkir ichak infeksiyalarining erta oldini olishga oid yondashuvlarni takomillashtirish.

3.2. Bolalarda ko‘krak suti bilan oziqlantirishning tug‘ma immunitetga hamda ichak mikrobiotasidagi mahalliy va fakultativ/tranzitor *E.coli* to‘plamining shakllanishiga ta‘sirini aniqlash.

3.3. O‘zbekiston Respublikasida urologik infeksiyalar va ularning bakteriologik peyzaji, rezistentligini tahlil qilish va baholash orqali siydik yo‘llari infeksiyalarini davolash usullarini takomillashtirish.

3.4. Respublika aholisi o‘rtasida B, C, D virusli gepatitlar va ularning uzoq muddatli asoratlarining tarqalishini baholash.

3.5. Neyron qo‘zg‘aluvchanlik disregulyatsiyasi sharoitida miya hujayralarini himoya qilish strategiyasini ishlab chiqish.

4. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha:

4.1. Kimyoviy xavfli obyektlarda favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularni bartaraf etishga o‘rgatish bo‘yicha dasturiy ta’minot yaratish.

4.2. Patogen variantlar tashuvchanligini aniqlash uchun populyatsiyaga yo‘naltirilgan genetik platformani ishlab chiqish.

5. “Texnika fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha:

5.1. Metallurgiya sanoatida hosil bo‘ladigan tarkibida kobalt saqlovchi chiqindilarni kompleks qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish.

5.2. Ferrosilitsiy ishlab chiqarishda hosil bo‘ladigan mikrokremniy changidan yangi turdagi import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar olish texnologiyasini ishlab chiqish.

5.3. Metallurgik ishlab chiqarishda hosil bo‘ladigan texnogen chiqindilardan germaniy metallini ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish.

5.4. Texnogen chiqindilarni kompleks qayta ishlash orqali toza volfram metallini ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish.

5.5. Vodorod generatorlarining energiya samaradorligini oshirish maqsadida elektrodlarni molibden va volfram qoplamali yangi funksional gradient material asosida yaratish.

6. “Pedagogika va psixologiya fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha:

6.1. Pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida o‘zbek tilini o‘rgatishga oid SI (*sun’iy intellekt*)ga asoslangan dasturiy ta'minotining yangi avlodini yaratish.

7. “Kimyo fanlari, kimyoviy texnologiya va nanotexnologiyalar” yo‘nalishi bo‘yicha:

7.1. Lipoproteinlarning aterogen fraksiyalarini benchtop *NMR* spectrometer (kompakt yadroviy magnit-rezonans spektrometri *YaMR*) spektroskopiyasi ma’lumotlari asosida miqdoriy baholash uchun modellashtirish usulini ishlab chiqish va joriy etish.

8. “Qishloq xo‘jaligi fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha:

8.1. Suv manbalari va suv ta’minoti tarmoqlarida suv yo‘qotishlarini kamaytirish va tarmoq bosimlarini monitoring qilish.

8.2. Amudaryo daryosi havzasi va deltasi suvli botqoq yerlari bioxilmaxilligi va ekotizimining hozirgi holatini baholash.